



Received: January 10, 2022
Accepted: March 12, 2022
Available online: March 25, 2022

Ziyodaxon Teshaboyeva

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Toshkent, O'zbekiston

Gulandom Boqiyeva

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
Toshkent, O'zbekiston

“BOBURNOMA”DAGI “MULOZAMAT” MAZMUNI VA INGLIZCHA TARJIMALARI TAHLILI

ANNOTATSIYA

Sharqona madaniyat va urf-odatlar, turkiy xalqlarning tarixi dunyo olimlarini hayratga solib keladi. Turkiy xalqlar adabiyoti o'zining rang-barang uslubi bilan turli sohalarda, xususan, tarjimashunoslik sohasida tarjima masalalarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur maqolada milliy-madaniy xususiyatlaridan biri – mulozamat konsepti va uning mazmuni “Boburnoma”ning ingliz tilidagi (J.Leyden-V.Erskin (1826), S.Beverij (1921) va V.Tekstonning (1996)) tarjimalari asosida o'rganildi. Jahon adabiyotining ma'naviy mulkiga aylangan “Boburnoma” tilshunos va tarjimashunoslar uchun jiddiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Uning yozilish uslubi xorijiy kitobxonni asliyat o'quvchisi bilan birdek hayratga sola oladi.

Asarda qo'llanilgan birgina mulozamat sozining bir necha mazmunda ifodalanishi muallif – Bobur iqtidoriga teng keladigan tarjimon bormikan, degan savolni tug'diradi. Shu nuqtai nazardan maqola muallifi milliy-madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi dominant so'z – mulozamatning ma'nolari va uning tarjimalardagi pragmatic xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

Mulozamat murakkab mazmunni o'zida jamlaydigan qadriyat, urf-odat, o'y-fikr va ezgu tushunchadir. Asar tabdilidagi, uning rus va ingliz tillariga tarjimalaridagi ifodasini tadqiq etish uchun ushbu dominant soz – mulozamatning ma'nolari qiyosiy aspektida o'rganilib, tasnif va

Ziyodakhon Teshaboyeva

Associate Professor, Alisher Navoiy Tashkent State
University of the Uzbek Language and Literature
Doctor of Science in Philological Sciences
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: zteshaboeva@mail.ru

Gulandom Bakieva

Professor, Uzbekistan State World Languages University
Doctor of Science in Philological Sciences
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: info@uzswlu.uz

THE CONTENT OF “COURTESY” IN “BABURNAMA” AND THEIR ENGLISH TRANSLATIONS' ANALYSES

ANNOTATION

National and cultural values are an important concept in the minds of the nation, serving as a great factor in the survival of a person and always reminding him/her of his/her identity. That is why every nation is unique and has its own way of life. Oriental culture, customs and history of the Turkic peoples have amazed the scholars all over the world. It is well to say that the literature of the Turkic peoples is a vast area for study of cognitive and conceptual issues in a multitude way.

In this article, the concept of mulozamat, is presented as one of the national and cultural values, and its cognitive aspects, the meaning of the original content and previously performed in different periods of English translations by J.Leiden & W.Erskine (1826), A.S. Beveridge (1921) and W.Thackston (1996). “Baburnama”, a respected source of world literature, is the source of information for linguists and translators. With its writing style, it is able to amaze all its' foreign students as much as the original reader. The question arises as to whether there is a translator who can match the author's ability to express a single word in several contexts.

In this context, in this article, we will try to explain the meanings and translation pragmatics of the dominant word mulozamat, which reflects one of the most difficult aspects of national-cultural values. In fact, mulozamat is a value, a

tavsif qilib berilgan. Turli davrda amalga oshirilgan inglizcha tarjimalarda mulozamatning muqobillari qoʻllanilganligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: frazeologik birlik, leksik-semantik, milliy-madaniy, tarjimashunoslik, pragmatik xususiyatlar, tilshunoslik.


tradition, a pride, a thought, and a noble concept that embodies a sharp content. The word is studied in Russian and English translations. In this article the author explains the other aspects of the study of the meaning of mulozamat that have just been forgotten. The meanings of the dominant word mulozamat are shown in the table and its translations are compared with other translations. The English translations made at different times, demonstrate equivalents of mulozamat created in them. Having a great style of writing of the memoir “Baburnama”, its Russian and English translations are also unique for us.

Key words: phraseological unit, lexical-semantic, national-cultural, translation, pragmatic aspects, linguistics.

KIRISH

Mulozamat soʻzining maʼnosi keng qamrovga ega va u bugungi kunda Toshkent, Samarqand va Fargʻona vodiysi aholisi nutqida ham faol qoʻllaniladi. *Mulozamat*ning qadimgi maʼno qirralari yoʻqolib, hozirda mehmon kutish, ogʻzaki tilda “*Samarqan manzarat*”, “*Toshkan manzarat*”, “*Qoʻqon manzarat*” kabi ogʻzaki nutqda saqlangan milliy-madaniy xususiyatlari qoʻllanilib keladi. “Boburnoma”da esa *mulozamat qilmoq* oʻziga xos maʼno-mazmunga ega. *Mulozamat qilmoq* asarning koʻp joylarida muallif tilidan qoʻllanilgan. Uning yashirin maʼnolari mavjudligi tufayli quyida *mulozamat qilmoq* ifodasining ingliz tilida frazeologik birlik orqali berilganini kuzatamiz:

1-rasm.



Mulozamat konseptining leksik-semantik maydoni

Mulozamat qilmoq asarning 115 oʻrnida qoʻllanilgan. “*Mulozamat qilmoq*” adabiy tilda *mulozimlik qilmoq* – vazifa yoki lavozim maʼnosida; *bosh egmoq* – hurmat-ehтиrom koʻrsatmoq; *tavoze qilmoq* – taʼzim bajo aylamoq; *mehmon qilmoq* – *mulozamat qilmoq*; *gina-kuduratlarni yuvmoq* – avval oʻtgan arazlarni kechirib, hol-ahvol soʻragani bormoq; *uchrashgani kelmoq* – rasmiy maʼnoda uchrashgani kelmoq; *qarindoshini yoʻqlab bormoq* – koʻrgani bormoq; *xizmatiga kirmoq* – mulozimlik qilmoq kabi mazmunlarda qoʻllaniladi. Yuqorida keltirilgan misollar ichida uchrashgani kelmoqdan tashqari misollarning barchasi FB (frazеologik birlik) hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ularning maʼnosi yanada yorqinroq aks etadi:

1-jadval.

Mulozamat konseptining leksik-semantik maydoni va tarjimalarining jadvalda qiyosiy aspektda aks etishi

№	Mulozamat leksik maydoni (asliyat)	Tabdil	Ruscha tarjimasi	Leyden – Erskin / tarjimasi (1826)	Susanna Beverij tarjimasi (1921)	Vilyer Tekston tarjimasi (1996)
1.	mulozamat qilur edi [39].	<i>mulozamat qilar edi</i> (iltifot koʻrsatar edi) [34].	и состоял при нем [16].	remained in Shiraz [11].	used to pay his respects [20].	paid him homage [13].
2.	<i>mulozamatimda</i> uch-toʻrt yil boʻldi [39].	xizmatimda uch-toʻrt yil turib [35].	находился при мне три-четыре года [16].	entered my service [12,13].	He was in my service [22].	joined my retinue [15].
3.	Mulozamat qilib, qoʻrgʻonni topshurdi [51].	mulozamat qilib, qoʻrgʻonni topshirdi [47].	сдав крепость, поступил ко мне в услужение [27].	presented himself before me [34].	to elect to serve me [53].	chose to submit [36].
4.	<i>mulozamat qilsam, ...</i> Haydarbek solgʻon bogʻda xongʻa mulozamat qildim [51].	bosh eg sam, Haydarbek solgan bogʻda xonga mulozamat qildim [47].	я пойду и стану ему служить и ... такими мыслями я явился в сад, разбитый Хайдарбеком в окрестностях Шахрухия [27].	to form a nearer... I went on, and waited on the Khan in the neighborhood of Shahrokhia, in a garden which had been laid out by Haydar Beg [34].	that if since I was so close,... bye-gone resentments were laid aside, I went. I waited on The Khan in the garden Haidar Kukiildsh had made outside Shahrukhiya [54].	if I were to patch up our past differences, ... I went to pay homage to the khan in the garden built by Haydar Beg outside of Shahrukhiyya [38].

5.	<i>mulozamatqa o't tishlab keldi. Asirlarni bag'ishladuq (tiz cho'kib keldi) [119].</i>	<i>Mulozamatga o't tishlab keldi. Asirlarni ozod qildik [118].</i>	явился с травой в зубах, служить мне. Мы подарили ему пленных [90].	came to me with grass in his mouth, and made his submission [160].	came to my presence, with grass between his teeth, and did me obeisance [233].	came with grass between his teeth to pay homage [174].
6.	Jahongir mirzo <i>mulozamatqa keldi (hol-ahvol so'rab kelmoq) [127].</i>	Jahongir mirzo <i>mulozamatga keldi [127].</i>	Джехангир мирза пришел мне служить [98].	Jehangir Mirza came thither to pay his respects to me [175].	Jahangir Mirza waited on me, ... [254].	Jahangir Mirza came to pay homage [191].
7.	<i>mulozamat qildi (xizmatimga kirdi) [166].</i>	<i>xizmatimga kirmoqchiliklarini bildirdi [169].</i>	выразили желание мне служить [132].	tendered their submission [255].	with offerings and done obeisance [381-382].	paid homage [272].
8.	<i>mulozamat qilib bir necha kun anda bo'ldum (iltifot ko'rsatib) [86].</i>	<i>mulozamat qilib, bir necha kun o'sha yerda bo'ldim [85].</i>	выразив почтение Шахбиким и Хану, моему дяде, я првёл там несколько дней [62].	I waited on... accordingly, and remained with them for some days [99].	I spent a few days in Tashkent and waited on [149].	I paid homage to Shah Begim and my uncle the khan and stayed there a few days [112].
9.	<i>darvoza orasida mulozamat qildi (salomlashdi) [68].</i>	<i>ikki darvoza tabaqasi orasida mulozamat qildi [65].</i>	стоя в воротах, выразил мне почтение [44].	he caused the gates to be opened, and paid his respects to me [65-66].	He did me obeisance between the (two) gates [100].	he opened the gate and made obeisance [73].
10.	<i>mulozamat qildilar (ta'zim qildilar) [77].</i>	<i>mulozamat qildilar [75].</i>	выразили мне почтение [52].	tendered me their duty [82].	did me obeisance [124].	paid homage [92].
11.	<i>mulozamatqa yiborib (hol-ahvol so'rash uchun yubormoq) [79].</i>	<i>mulozamatga yuborib [77].</i>	изъявили преданность [55].	to pay me their respects [86].	sending efficient men for me service [131].	to pay me their respects [98].

ASOSIY QISM

*Mulozamat qilmoq*ni V.Tekston aksariyat hollarda hech ikkilanmay inglizcha “to pay homage” – *tavoze qilmoq* orqali aks ettirgan. Milliy-madaniy o'ziga xos va ko'chma, ijobiy ma'noda qo'llanadigan va aynan o'zbek millatida uchrab turadigan

madaniyat belgisi, ma'naviy turmush tarzi sifatida *mulozamat qilmoqda* aks etgan:

Nechukki, mazkur bo'ldi, xotirg'a yettikim, ora muncha yovuq bo'lg'onda xon, chun ota og'adurlar, borib mulozamat qilsam, o'tgan kuduratlar raf' bo'lg'ay, yiroqda-yovuqta eshitur, ko'rarga yaxshi bo'lg'ay deb kelib, Shohruxiyadan tashqari Haydarbek solg'on bog'da xong'a mulozamat qildim [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 51]. Milliy-madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ushbu asliyat misolida ajratib yozilgan FB Leyden–Erskinning inglizcha tarjimasida quyidagicha beriladi:

... that it would enable me to form a nearer and better idea of the real state of things at his court. Having formed this resolution, I went on, and waited on the Khan in the neighbor-hood of Shahrokhia, in a garden which had been laid out by Haydar Beg [Leyden J., 1826; 34] – ... unga yaqin bo'lish meni jur'atli qiladi va chinakamiga uning saroyida bo'lish fikri bu yerda bo'lgandan ko'ra yaxshiroqdir. Shunday qarorga kelib, men bordim va Shohruhiyaning yonida joshlashgan, Haydar Bek tomonidan solingan bog'da Xonning **kelishini kutib turdim**.

Borib mulozamat qilsam – to form a nearer – **yaqinroq bo'lsam** tarzida tarjimada aks etgan bo'lsa, *kuduratlar raf' bo'lg'ayning* tarjimasi saroyida bo'lish fikri yaxshiroq deb berilgan. Ushbu misol S.Beverij tarjimasida quyidagicha aks ettgan:

It occurred to me that if since I was so close, I went and waited on him, he being, as it were, my father and my elder brother, and if bye-gone resentments were laid aside, it would be good hearing and seeing for far and near. So said, I went. I waited on The Khan in the garden Haidar Kukulddsh had made outside Shahruxhiya [Beveridge A.S., 1921; 54] – Xotiramga keldiki, agar men unga **shunchalik yaqin bo'lsam**, otamdan, aka-ukalarimdan o'tgan xafagarchiliklar barham topgay, buni uzoqdan turib eshitgandan ko'ra, yaqin bo'lib ko'rgan afzal. Shunday qilib men bordim. Men Xonni Shohruhiyaning tashqarisidagi Haydar ko'kaldosh soldirgan bog'da **kutdim** (muallif tarjimasi).

Ushbu misolda borib mulozamat qilsam – **if since I was so close** – agar men unga shu qadar yaqin bo'lsam, bye-gone resentments were laid aside – o'tgan kuduratlar raf' bo'lg'ay – xafachiliklar barham topgay tarzida tarjima qilingan. Asliyat misoli V.Tekstonda esa quyidagicha tarjima qilinadi:

It crossed my mind that since the distance was slight and the khan was like my father and elder brother, if I were to patch up our past differences, it would have excellent propagandistic value. So saying, I went to pay homage to the khan in the garden built by Haydar Beg outside of Shahruxhiyya [Thackston W.M., 1996; 38] – Miyamda bir fikr aylanardiki, Xon uzoq bo'lsa ham akam va otam kabi qondoshdir, agar ularni yo'qlab borib, o'tgan kuduratlarni yumshatsam (silliqlamoq) qadrlashga loyiq eng yaxshi targ'ibot qilgan bo'laman. Shunday o'y bilan Shohruhiya tashqarisidagi Haydarbek qurgan boqqa xonni yo'qlab bordim (muallif tarjimasi).

V.Tekstondagi mulozamat qilsam FBi **to pay homage** – yo'qlab bormoq, borib ko'rmoq inglizcha **if I were to patch up** – o'tgan kuduratlarni yumshatsam tarzida tarjima qilingan. V.Tekston tarjimada *borib ko'rsam, yo'qlab borsam, tashrif buyur-sam* kabi *to pay homagening* keng qamrovli mazmunini, ayni mulozamat qilmoqning muqobilini ifodalabgina qolmay, balki mavzuga siyosiy tus ham bergan va eng yaxshi

targ‘ibot qilgan bo‘laman degan o‘yda tarjima mazmunini kuchaytirgan. Ushbu misolda garchi tarjimonlar adekvat tarjimaga erishgan bo‘lsalar-da, biz ham o‘zimizning variantimizni havola etishni lozim topdik:

It came to my mind why Khan and father is called a blood relation if they couldn't help their kin when they were in need. If I go and give regards to them by-gone offences be forgotten, it would be tactful from far and close being in nearby to relatives in such circumstances. As a result I decided sympathetically and came up to pay homage the Khan in the garden built by Haydar Beg outside of Shohrukhhiyya.

Asarda yana bir frazeologik birlik, mulozamat qilmoqning tavoze qilmoq ma‘nosida ham keladiki, ushbu misol orqali tarjimalarni qiyoslash chog‘ida uni tavoze ekanligini yaqqol anglab yetishimiz mumkin: *Ushmunda tushganda namozi xuftan Sulton Jaloliddin kelib, mulozamat qildi. Ikki kichikkina o‘g‘lini ham o‘zi bila olib keldi* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 251]. Ushbu misol tarjimasi Leyden–Erskinda quyidagicha aks etgan: *As I was halting here, about bed-time prayers, Sultan Jalaliddin waited on me to offer me his duty. He brought along with him his two young sons* [Leyden J., 1826; 404] – *Yotish vaqtida o‘qiladigan namoz mahali, men shu yerda to‘xtab turganimda Sulton Jaloliddin menga iltifot ko‘rsatib, tavoze qilish uchun meni kutib turgandi. U o‘zi bilan birga ikki kichik o‘g‘lini ham olib kelgandi* (muallif tarjimasi).

Salom-alik qilib ketish, hol-ahvol so‘rash, yo‘qlab borish kabi qadriyatlar azaldan mavjud bo‘lib, navkarlardan biri bo‘lgan Sulton Jaloliddin va uning o‘g‘illari bilan podshohni yo‘qlab, oldiga kirgani *mulozamat qilmoq* ifoda birligida aks etgan. Asliyat mazmunini Leyden–Erskin *mulozamat qildi* konseptining grammatik transformatsiya orqali aks ettirish uchun *waited on me* gapiga *to offer me his duty* jumlasini qo‘shish orqali to‘liq asliyat mazmunini tiklangan. Tarjimon uslubida asliyatni aks ettirish uchun muayyan jumlaning olib tashlash yoki qo‘shish bilan asliyat mazmuni tiklangan. Yuqorida berilgan asliyat matni S.Beverij qalamida quyidagicha ifoda topgan:

Today at the Bedtime Prayer SI. Jalalu‘d-din came with his two young sons to wait on me [Beveridge A.S., 1921; 651] – Bugun yotish mahali, ibodat qilish paytida S.Jaloliddin ikki yosh o‘g‘li bilan menga salom berish uchun kelib, kutib turdilar.

S.Beverij tarjimasida *mulozamat qildi* konsepti **to wait on me**, bu yerda garchi salom bermoq so‘zi yo‘q bo‘lsa-da, *to wait on* frazeologik birligi podshohga hurmat-ehtirom bilan tavoze yoki salom berish ma‘nosini qamrab olganligi uchun uni menga salom berish uchun *kutib turdilar* deb o‘g‘irilgan. Asliyat misoli so‘nggi tarjimon V.Tekstonda quyidagicha berilgan:

While we were camped, Sultan Jalaluddin came late that night and rendered homage. He brought his two small sons with him [Thackston W.M., 1996; 438] – Biz qarorgohga joylashganimizda Sulton Jaloliddin o‘sha kecha kelib, menga hurmat bajo keltirdi. U ikkita kichikkina o‘g‘lini o‘zi bilan birga olib kelgan edi (muallif tarjimasi).

V.Tekston *mulozamat qildini rendered homage*, ya‘ni hurmat bajo keltirdi tarzida ifodalaydi. Asliyatdagi ikki soni (*ikkita kichikkina*) har bir inglizcha tarjimada

o'zgarmaydi, lekin *small* so'zi songa tegishli *ikki kichkina* – *two small sons* deb qayta o'g'irishda aks ettiriladi. Tarjimon bu joyda *mulozamat* ma'nosining yumshoq – hurmat ma'nosida bajo aylash kabi frazeologik birlikda aks ettirib, adekvat tarjimaga erishganligini ko'ramiz.

1. Quyidagi misolda *mulozamat* qilmoq yuqoridagi FB mazmunidan farqli o'laroq xizmat qilmoq yoki bosh egmoq mazmunida keladi: *Xisravshohkim, Qunduzdin el-kuniga boqmay Kobul azimati bila chiqar, anga taalluq el va ulus besh-olti bo'lak bo'lurlar. Badahshondag'ilar bir bo'lak: Saydim Ali darbonkim, Rusto hazorasida edi, Panjhir yo'li bila oshib ushbu yurtta bizga mulozamat qildi; yana bir bo'lak: Yusuf Ayyub va Bahlul Ayyub edi, alar dag'i bu yurtta mulozamatqa keldilar* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 105] – Xisravshoh, Qunduzdan el-urug'iga boqmay Kobulga yo'l olganida unga taalluqli el va ulus besh-olti bo'lakka ajraladi. Badahshondagilar bir bo'lak: Rusto hazorasidagi Saydim Ali darbon, Panjhir yo'li bilan oshib ushbu yurtta bizga bosh egib kelishdi; yana bir bo'lagi: Yusuf Ayyub va Bahlul Ayyub edi. Ular ham bu yurtta xizmatimga keldilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 105]. Bu yerda hazora ulusidan bo'lgan Saydim Ali darbonning bosh egib kelishi va uning sheriklari Yusuf Ayyub va Bahlul Ayyubning Bobur xizmatiga kirishini ta'kidlaydi. Ushbu parchani asarning rus tilidagi tarjimasi bilan ham qiyoslab ko'ramiz:

Когда Хусраушах, не заботясь о своих людях, вышел из Кундуза, направляясь в Кабул, подвластные ему племена разделились на пять или шесть отрядов. Один отряд составляли бадахшанцы [под начальством] Сейдим Али дарбана из племени Руста Хазара, который, перевалив через Панджхир, вступил к нам в услужение на этой стоянке. Другой отряд – люди Юсуфа, сына Айюба, и Бахлула, сына Айюба [тоже] пришли служить нам на этой стоянке [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 79].

Lekin rus tarjimonlari har ikki frazeologik birlik – *mulozamat qildi* va *mulozamatqa keldi* ifodalarini bir xil mazmunda, ya'ni *вступил к нам в услужение* – xizmatimizga kirdi va *пришли служить* – xizmatga keldi tarzida aks ettirganini ko'ramiz. Shu bilan birga J.Leyden va V.Erskinda asliyat quyidagicha tarjima qilingan:

When Khosrou Shah abandoned Kundez, and set out for Kabul, without troubling himself about his Ils and Uluses, (the wandering Turki and Moghul tribes) the troops in his service, including the Ils and Uluses, formed five or six bodies. One of these bodies was composed of the men from the hill-country of Badakhshan. Sidim Ali Derban, with the Hazaras of the desert, having passed the straits of Penjhir, joined me at this stage, and entered into my service. I spared his life, and he entered into my service [Leyden J., 1826; 133] – Xusravshoh Qunduzdan voz kechib, o'zining Ils va Uluslari haqida hech bir tashvish qilmasdan, Kobulga yo'l olganida (Turkiya va Mo'g'ul qabilalari sarson-sargardonlikda bo'lgan mahal), uning xizmatidagi qo'shinlar, jumladan Ils va Uluslar besh-oltita bo'lgan kishidan tuzdilar. Ushbu kishilardan biri Badaxshon tog'li yerlaridan iborat edi. Saydim Ali Darbon sahro hazoralari bilan Penjxir bo'g'ozlaridan o'tib, bu bosqichda menga qo'shildi va mening xizmatimga kirdi. Men

uning hayotini bag‘ishladim va u mening xizmatimga kirdi (muallif tarjimasini).

Tarjimon jarayonni to‘liq anglagan holda bir-biri bilan bog‘langan voqea va hodisalar tafsilotini yorqin ochib berishga harakat qiladi. Asliyatni to‘liq ochib berish uchun tarjimon ulus mazmuniga urg‘u berib, qavs ichida Turkiya va Mo‘g‘ul qabilalari sarson-sargardonlikda bo‘lgan holatni o‘quvchining yodiga soladi. Har qanday anglashilmovchilikning oldini olish uchun gap nima haqida borayotganligini ta’kidlab boradi. Asliyatdagi FB bizga *mulozamat qildi* konseptini – *mening xizmatimga kirdi; mulozamatqa keldilarni ham mening xizmatimga kirdi* tarzida tarjima qiladi. Bundan ko‘rinadiki, tarjimonlar tarixiy shaxs va voqea-hodisalarga jiddiy qaraydilar. Asliyat misolini S.Beverij quyidagicha tarjima qilgan:

The various clans and tribes whom Khusrau Shah, without troubling himself about them, had left in Qunduz, and also the Mughul horde, were in five or six bodies (bulak). One of those belonging to Badakhshan, – it was the Rusta-hazara, – came, with Sayyidim ‘Ali darban, across the Panjhir-pass to this camp, did me obeisance and took service with me. Another body came under Ayubs Yusuf and Ayubs Bihlul; it also took service with me [Beveridge A.S., 1921; 196] – Xusrav Shoh Qunduzni tark etgan turli qabilalar va shuningdek Mo‘g‘ullar qo‘shilib besh-olti kishidan (bo‘lak) tarkib topgan. Badaxshonga tegishli bo‘lganlardan biri bu – Rusta-hazara edi, - Saydim Ali darbon bilan Panjhir dovoni bo‘ylab ushbu lagerga borganimda, menga sajda qildi va uni menga xizmat qilish uchun oldim. Yana boshqa bir kishi Ayubning Yusuf va Ayubning bahlullari zimmasiga tushdi; u ham men bilan birga xizmat qildi (muallif tarjima).

S.Beverijning tarjimasini biroz bo‘lsa-da, o‘quvchini chalg‘itadi. Asliyatdagi FB *mulozamat qildi* konseptining ma’nosi *did me obeisance* orqali kuchaytirilib, *menga sajda qildi* deb berilsa, asliyatdagi ikkinchi berilgan *mulozamatqa keldilarni took service with me* ya’ni *uni menga xizmat qilish uchun oldim*, tarzida o‘giradi. Asliyatdagi (bulak) tranlitteratsiya holicha keltiriladi. Tarjimon kishi ismlarini to‘g‘ri berishda kamchilikka yo‘l qo‘ygan. FB mazmunining aynan berilishi va uning yonida kelgan jumlar mazmunini kuchaytirish orqali maqsadiga erishishga harakat qilgan. Asliyat matni V.Tekstonda quyidagicha tarjima qilingan:

Khusrawshah left Konduz for Kabul without a thought for his people, who were made up of five or six groups. In Badakhshan one group of Sayyidim Ali Darbans, who was in the Rustra Hazara, crossed the Panjshir and made obeisance to us at our camp. Another party, of Yusuf Ayyub and Bahlul Ayyubs also gathered to make obeisance [Thackston W.M., 1996; 149] – Xusravshoh Qunduzdan besh-olti guruhdan iborat xalqini o‘ylamasdan Kobulga jo‘nab ketdi. Badaxshonda Saydim Ali Darbonning Rustra Hazarasidan bo‘lgan bir guruh kishilari bilan Panjhiridan o‘tib kelib, qarorgohimizda bizlarga sajda qildilar. Yusuf Ayub va Bahlul Ayubning yana bir boshqa ziyofati ham bizga sajda qilish uchun yig‘ildilar (muallif tarjima).

V.Tekstonning asliyat matnini o‘g‘irishdagi mahorati bois tarjima ravon o‘qiladi. Voqea va hodisalar bir-biriga mazmun jihatdan bog‘langan. Qavs ichida ta’kidlar berilmagan. V.Tekston asliyatdagi FB bizga *mulozamat qildi* konseptini *inglizcha made obeisance to us*, ya’ni bizlarga sajda qildilar, asliyatdagi ikkinchi berilgan *muloza-*

matqa keldilarni esa gathered to make obeisance – bizga sajda qilish uchun yig‘ildilar tarzida tarjimada aks ettiradi.

Matn uslubini aniqlash sodda, barchaga tushunarli, ortiqcha bezaklardan xoli. Ma’lumki, tarjimada bir tushunchaga boshqa bir tushunchaning to‘g‘ri kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, tarjimada so‘zga-so‘z, gapga-gap, iboraga-ibora to‘g‘ri kelishi mumkin, lekin uning grammatik moslashuvi, jumla-lar-ni-ning tushib qolishi yoki qo‘shilishiga olib keladi. Shuning asosida tarjimadagi FB yoki leksik birlik va so‘z, so‘z birikmasi bo‘ladimi, hatto bitta so‘zga bitta so‘z to‘g‘ri keladigan FB ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bunda ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan FB bitta so‘z ma’nosiga to‘g‘ri kelishi holatlari ham uchrab turadi.

“Boburnoma” asarida mulozamatning yana bir ko‘rinishini aymoqlarning Boburga kelib ta’zim bajo aylashi haqidagi ushbu misolda aks ettirilgan: *Bu yerlarda kiyik juda ko‘p bo‘ladi. Bir marotaba ovladik. Bir-ikki kundan so‘ng aymoqlarning hammasi kelib mulozamat qildilar. Aymoqlarga Jahongir mirzo bir necha martaba kishilar yubordi. Bir safar Imodiddin Mas‘udni yubordi. Bormadilar. Mening qoshim-ga keldilar* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 143].

Ushbu berilgan misolda *mulozamat qilmoq* ta’zim qilmoq mazmunida kelib, oxirgi gapning *Mening qoshimga keldilar* orqali natijaning sababi tarzida ochib beriladi. Asliyat misoli rus tiliga shunday tarjima qilingan:

В тех местах очень много кииков; мы один раз поохотились. Через день-два все аймаки явились и вступили к нам в услужение. Сколько Джехангир мирза не посылал к аймакам людей – один раз он отправил к ним Имамаддина Мас‘уди, аймаки не шли к нему, а ко мне пришли [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 110] – Bu joylarda juda ko‘p kiyiklar bor; biz bir marta ov qildik. Bir-ikki kun ichida aymoqlar paydo bo‘lib, bizning **xizmatimizga kirdilar**. Jahongir mirzo odamlarini ushbu viloyatlarga qanchalik jo‘natmasin, hatto bir marta Imomiddin Mas‘udni ularga yuborganida ham uning oldiga bormadilar, lekin ular mening yonimga kelib qo‘shilishdi. Ushbu tarjimadan ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi *mulozamat qilmoq* tavoze qilmoq ma’nosida emas, xizmatiga kirmoq mazmunida aks etadi. Inglizcha tarjimalarida esa butunlay boshqacha tus olgan. J.Leyden va V.Erskinda asliyat misoli quyidagicha berilgan:

*As some of our men had been sent out to get information of Jehangir Mirza and this Aimaks, I remained for some days in the Ilagh of the hill of Saf, waiting for their return. In this neighborhood there are numbers of deer. I hunted once. In a few days all the Aimaks came out and **acknowledged me**. Though Jehangir Mirza had sent different persons to the Aimaks, and on one occasion had deputed Emadeddin Masaud to work upon them, they could not be induced to go over to him, but joined me* [Leyden J., 1826; 200] – Jahongir mirzo va bu aymoqlar to‘g‘risida ma’lumot olish uchun ba’zi erkaklarni yuborganligi sababli, men bir necha kun Saf tepaligining Ilagida bo‘lib, ularning qaytishini kutdim. Ushbu mahalda kiyiklar soni ko‘p edi. Men bir marta ov qildim. Bir necha kundan keyin barcha aymoqlar chiqib, **menga iltifot ko‘rsatdilar**. Jahongir mirzo bir necha odamlarini aymoqlarga yuborgan va bir safar Imomiddan Mas‘udni ularning ustida ishlash uchun tayinlagan bo‘lsa ham, uning

oldiga bormay, kelib menga qo‘shilishdi (muallif tarjimasini).

J.Leyden va V.Erskin asliyatni tarjimada qayta aks ettirishda tasviriy vositadan foydalanadilar. Shunga ko‘ra asliyat matnidagi belgilar: leksik birliklar soni ham tarjimada ikki hissa oshganini ko‘ramiz. Ularning tarjimasidagi bir necha kun Saf tepaligining Ilagida bo‘lib, ularning qaytishini kutdim jumalari asliyatda mavjud emas, u tarjimada matn ma‘nosini to‘ldirish uchun xizmat qilmoqda. Unda Saf tepaligining Ilagida emas, kichik harf bilan Saf etagida deb, berish to‘g‘ri bo‘lar edi. *Mulozamat qildilar* esa *acknowledged me* gapida aks etgan bo‘lib, ular menga iltifot ko‘rsatdilar deb tarjima qilingan. Bir matnni turlicha talqin etish va ingliz tilida aks etishini qiyosiy o‘rganib, tarjimon chalg‘imaslik uchun asliyatga qayta-qayta murojaat etishi zarurligini eng maqbul usul deb ta’kidlaymiz. Shu bilan birga navbatdagi – S.Beverij tarjimasida asliyat misoli qay tarzda o‘g‘irilganligini kuzatamiz:

We hunted once, those hills being very full of wild sheep and goats (kiyik). All the clans came in and waited on me within a few days; it was to me they came; they had not gone to Jahangir Mirza though he had sent men often enough to them, once sending even ‘Imadud-din Masud’. He himself was forced to come at last; he saw me at the foot of the valley when I came down off Saf-hill [Beveridge A.S., 1921; 296] – *Biz bir marta ov qildik, u tepaliklar yovvoyi qo‘y va echkilar bilan to‘la edi (kiyik). Barcha qabilalar kelib, bir necha kun ichida meni kutib turishdi; Jahongir mirzo garchi ularga odamlarini tez-tez yuborib turgan va hatto “Imomuddin Mas‘ud”ni yuborgan bo‘lsa ham uning huzuriga borishmasdan, mening xizmatimga kelishdi. Uning o‘zi ham nihoyat kelishga majbur bo‘ldi; u Saf-tepadan tushganimda meni vodiy etagida ko‘rdi* (muallif tarjimasini).

Yuqorida keltirilgan tarjimalardagi farqlar haqida shuni aytish mumkinki, S.Beverijda mazmun biroz to‘ldirilgan. *Mulozamat qilmoq* esa meni kutib turishdi ifodasi bilan aks ettirilgan. V.Tekston asliyat matnini quyidagicha o‘g‘irgan:

This region has an awful lot of deer. We went hunting once. After a day or two all the Aymaqs came and swore fealty to me. Several times Jahangir Mirza had directed people to the Aymaqs, once sending Imaduddin Masud. But they did not go to him – they came to me instead. Finally there was nothing the mirza could do, so he came to see me when I went down from Koh-i-Saf and camped in Dara-i-Bai [Thackston W.M., 1996; 221-222] – *Ushbu tumanda juda ko‘p yovvoyi kiyiklar bor. Bir marta ovga chiqdik. Bir-ikki kundan keyin barcha aymaqlar kelib menga sodiqlik qasamyodini qildilar. Bir necha marta Jahongir mirzo odamlarni Aymoqlarga yo‘naltirgan, bir marta Imomiddin Mas‘udni yuborgan. Ammo ular unga murojaat qilishmadi, aksincha, ular menga kelishdi. Nihoyat, mirzo qila oladigan hech bir ish yo‘q edi, shuning uchun men Ko‘hi-Safdan tushib, Dara-Bay shahrida qarorgoh qurganimda u meni ko‘rgani keldi* (muallif tarjimasini).

V.Tekston asliyat mazmunini aks ettirish uchun tarjimaning transformatsion usulidan foydalangan. Asliyatdagi *mulozamat qilmoq*ning mohiyatini ifodalash orqali *sodiqlik qasamyodini qildilar* tarzida ingliz tilida aks ettiradi. Matn to‘liq transformatsiyaga uchrasa ham, uchramasa ham uning tarjimasida hech qanday yo‘qotishlar yuzaga kelmaydi, uning ustiga mazmun kuchaytirilganligi, tarjimon aynan nimaga

urgʻu berib tarjimani aks ettirayotgani sezilgan. *Mulozamat qilmoq* asarda asosan tarixiy shaxslar munosabatlari, mashhur voqea-hodisalarga oid kontekstlarda uchraydi.

Nosir mirzokim, ilgarrak viloyatigʻa kelib edi, Odinapurda kelib, mulozamat qildi. Ul yuzdin kelgan aymoq va ahshom qishloq maslahatigʻa tamom koʻchub, Lamgʻanot kelib edilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 117] – Ilgariroq viloyatiga kelgan Nosir mirzo Odinapurda kelib, *mulozamat qildi*. U tomondan kelgan aymoq va ahshom qishlash maslahatiga tamom koʻchib, Lamgʻanotga kelgan edilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 116] – *Насир мирза, который раньше прибыл в свою область, явился а Адинапур и остался при мне. Аймаки, пришедшие из холодной области, все откочевали на зимовье и находились в Ламганате* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 89].

Asliyatdagi *mulozamat qilmoq* tabdilda aks etgan, lekin ruschada aks etmagan, faqat *явился а Адинапур и остался при мне* – *Odinapurda kelib, men bilan qoldi* tarzida aks etgan. Rus tilida goʻyoki hech narsa yoʻqotilmagandek tuyuladi yoki boshqacha qanday boʻlishi mumkin degan savol ham paydo boʻladi. Yuqoridagi asliyat misoli inglizcha J.Leyden va V.Erskinda esa mana bunday tarjima qilingan:

At this time the Gagiani Afghans were in Peshawer, and, from dread of my army, they had all drawn off to the skirts of the mountains. At this encampment, Khosrou Gagiani, one of the chief men of the Gagianis, came and paid me his respects [Leyden J., 1826; 158] – *Bu vaqtda Gogiyoni afgʻonlari Peshavorda edilar, ularning hammasi mening armiyamning kelishidan qoʻrqib, togʻ etaklariga ketdilar. Ulardan biri boʻlgan Xusrav Gogiyoniy kelib, menga hurmat bajo keltirdi.*

Tarjimonlar *mulozamat qilmoqni* menga hurmat bajo keltirdi, deb toʻgʻri aks ettirishsa ham, kim kelib mulozat qilgani toʻgʻri tarjima qilinmay, asliyatda Nosir mirzo, tarjimada Xoʻsrav Gogiyony *mulozamat qildi* deb notoʻgʻri talqin etilgan. Asliyat matni S. Beverijda esa quyidagicha beriladi:

Nasir Mirza, who had gone earlier to his district, waited on me in Adinapur. We made some delay in Adinapur in order to let the men from behind join us, also a contingent from the clans which had come with us into Kabul and were wintering in the Lamghanat [Beveridge A.S., 1921; 229] – *Nosir Mirzo avvalroq tumanga yetib kelganlardan biri edi. U meni Odinapurda iltifot koʻrsatib, kutib turdi. Orqada qolgan va biz bilan birga Kobulga kelganlar va Lamgʻanotda qishlayotgan qabilalarni qoʻshib olish uchun Odinapurda toʻxtab turdik.*

Tarjimon asliyatdagi ibora *mulozamat qildi* konseptini *waited on me* – *menga iltifot koʻrsatib kutib turdi* tarzida oʻgʻirgan va *mulozamat qilgan* shaxs Nosir mirzo ekanligini aniq koʻrsatgan. Asliyat matni uchinchi turdagi inglizcha V.Tekston tarjimasida quyidagicha berilgan:

Nasir Mirza had come ahead to his province and paid homage at Adinapur. The tribes and clans who had come from the other side had all migrated into the Laghman region for the winter [Thackston W.M., 1996; 171] – *Nosir mirzo viloyatga hammadan oldin yetib kelgan va Odinapurda taʼzim bajo keltirdi. Boshqa tarafdin kelgan qabilalar va ularning hammasi qishlash uchun Lagman hududiga koʻchib kelishgan edi* (muallif tarjimasini).

V.Tekston asliyatni to'la-to'kis tarjimada aks ettira olgan deyish mumkin. *Mulozamat qilmoq* inglizcha *to pay homage* orqali o'girilgan va FB o'z shakli va ma'nosini saqlagan. Albatta, tarjima metodlari va qonuniyatlari tarjimini mukammallashtirishga, tarjima tartibini belgilashga yordam beradi. Shunga qaramay, har bir tarjimonning o'z uslubi va mahorati borki, dunyoni o'ziga xos ko'rishi va o'z tilida ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan biz fikr yuritayotgan "Boburnoma"ning uch turdagi inglizcha tarjimalari (J.Leyden – V.Erskin (1826), S.Beverij (1921) va V.Tekston (1996)) ham o'ziga xos ekanligini, *mulozamat*ning mazmunini J.Leyden–V.Erskin va V.Tekston to'g'ri anglagan holda tarjima qilganini ta'kidlaymiz. J.Leyden – V.Erskin tasviriy vositalar, V.Tekston transformatsion usul bilan asliyatni aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

Haqiqatan ham V.Tekston ba'zan tarjimada asliyatni to'liq transformatsiya qilishga urinadi. Uning bu keskin harakatlari go'yo asliyat mazmuniga putur yetkazayotgandek tuyuladi, aslida esa unday emas. Tajribali tarjimonning asliyatni har tomonlama o'rgangani uning ishlarida yaqqol seziladi. Bu yana shundan ham darak beradiki, "Boburnoma"ning forscha tarjimasi ham juda yaxshi amalga oshirilgan, chunki V.Tekston "Boburnoma"ni fors tilidan ingliz tiliga o'girgani soha mutaxassislariga ayon.

Asarda FBlar bilan birga milliy-madaniy qadriyatlarni o'zida yaqqol aks ettiradigan iboralar, xos so'zlar ham uchraydi. Ushbu xos so'zlarni tarjima qilish juda murakkab vazifa. Quyidagi misolda uning ifodasini ko'ramiz:

Yakshanba kuni, jumodi ul-avval oyining o'n beshida Xoja Muhammad Ali Xosttin keldi. Bir egarlik ot peshkash qilib, tasadduqqa yormoq ham kelturdi. Muhammad Sharif munajjim va Xost mirzolari ham Xoja Muhammad Ali bila kelib, mulozamat qildilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 173].

Ushbu berilgan misolda milliy-madaniy xususiyatli *peshkash qilib, tasadduq* va *mulozamat qildilar* xos iboralar qatoriga kiradi va asarning tabdilida ham to'liq aks etganini ko'ramiz – Jumod ul-avval oyining o'n beshinchisida, yakshanba kuni Xostdan Xoja Muhammad Ali keldi. Bitta egarlangan *ot tortiq qilib, sadaqa uchun pul ham olib keldi*. Xoja Muhammad Ali bilan birga Muhammad Sharif munajjim va Xost mirzolari ham kelib, *menga xizmat qilish niyatlarini bildirdilar* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 178].

Asarning tabdilida *peshkash qilib – tortiq qilib, tasadduq – sadaqa, mulozamat qildilar – xizmat qilish niyatlarini bildirdilar* tarzida tabdil qilingan. Asliyat mazmuni tabdilga to'liq ko'chsa-da, asliyat matnining o'ziga xosligi sezilib turadi. Lekin *peshkash, tasadduq, mulozamat* so'zlarining zalvori asliyat mazmuniga teng kelolmaydi. Yuqorida keltirilgan misol rus tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

В воскресенье, пятнадцатого числа месяца первой джумады, Ходжа Мухаммад Али прибыл из Хаста. Он доставил в подарок оседланного коня и деньги на бедных. С Ходжой Мухаммад Али явились также Мухаммад Шариф, звездочет, и хастские мирзы; они изъявили желание мне служить [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 139].

Rus tilidagi misolda *peshkash qilib – в подарок – sovg'a; tasadduq – деньги на*

бедных – kambagʻallarga pul; *mulozamat qildilar* – изъявили желание мне служить – *xizmat qilish istagini bildirdilar* tarzida oʻgʻirilgan boʻlib, rus tilida asliyat mazmuni ham oʻziga xos tarzda aks etgan, asliyat matnidagi milliy-madaniy xususiyatlar imkon qadar oʻz ifodasini topgan. Asliyat matni inglizcha J.Leyden – V.Erskin tarjimaida quyidagicha keladi:

On Sunday, the 15th of the first Jemadi, Khwajeh Muhammed Ali came from Khost. He brought a saddled horse as tribute, and also some money as an offering. Muhammed Sherif Munejjim, and some sons of the Mirzas of Khost, accompanied Khwajeh Muhammed Ali, and tendered their services [Leyden J., 1826; 268] – Yakshanba kuni, oyning oʻn beshining birinchi Jumasida Xoʻja Muhammad Ali Xostdan keldi. U oʻlpon sifatida egarlangan ot va yana biroz pul sovgʻa olib keldi. Muhammad Sharif Munajjim va Xost mirzalarining baʼzi oʻgʻillari Xoʻja Muhammad Ali bilan birga menga *dildan xizmat qilishlarini izhor etdilar*.

J.Leyden–V.Erskinda *peshkash qilib* – as tribute – oʻlpon sifatida kelsa, *tasadduq* – offering – (pul) sovgʻa, *mulozamat qildilar* – *tendered their services* – *dildan xizmat qilishlarini izhor etdilar* kabi muqobillari orqali aks etgan. Ularning tarjimasidagi *Tasadduq* – offering sovgʻa pul indikator orqali aks etib, *mulozamat qildilar* ning inglizchadagi *tendered their services* deb berilishi tarjimani jozibalibroq chiqishini taʼminlagan. Asliyat matni S.Beverijda shunday tarjima qilgan:

(May 15th) On Sunday the 15th of the first Jumada Khwaja Muhammad 'Ali came from Khwast, bringing a saddled horse as an offering and also tasadduq money. Muh. Sharif the astrologer and the Mir-zadas of Khwast came with him and waited on me [Beveridge A.S., 1921; 399] – (15-May) Yakshanba kuni birinchi Jumada Xoʻja Muhammad Ali Xostdan kelib, sovgʻa tariqasida egarlangan ot olib kelib, tasadduq pulini ham keltirdi. Muhammad Sharif bilan birgalikda Xost mirzazodalari kelib, meni iltifot bilan qarshi oldilar.

S.Beverij ham *peshkash qilibni an offering* – sovgʻa tariqasida bersa, *tasadduq* ni alliteratsiya, yaʼni kursivda, talaffuzini tarjima qilish orqali aks ettiradi va unga matnosti havola keltirmaydi. Uning tarjimasida kishi nomlari qisqartiriladi va soʻnggi ibora *mulozamat qildilar* – *meni iltifot bilan qarshi oldilar* tarzida aks ettiriladi. Askarlarning chin dildan xizmat qilishlari tarjimada podshohni iltifot bilan kutib turishiga oʻzgartirilib, *mulozamat qildilar* asliyat matni mazmuniga mos kelmay qoladi. Asliyat matni V.Tekstonda esa quyidagicha tarjima qilingan:

On Sunday the fifteenth of Jumada I, Khwaja Muhammad-Ali came from Khwast bringing a saddled horse as a present and also aims money. Muhammad Sharif the astrologer and the Mirzadas of Khwast also came with Khwaja Muhammad-Ali to pay homage [Thackston W.M., 1996; 286] – Yakshanba kuni, oʻn beshinchida, Jumada men, Xoʻja Muhammad Ali Xostdan sovgʻa sifatida egarlangan ot olib kelib, niyat qilib pul ham berdi. Muhammad Sharif munajjim va Xost mirzazodalari ham Xoʻja Muhammad Ali bilan birga menga taʼzim qilish uchun keldilar (muallif tarjimasi).

V.Tekstonda toʻliq gap *Xoʻja Muhammad Ali Xostdan kelib* jumalari asliyat mazmuni bilan hamohanglik yoʻqolganini koʻramiz. Uning tarjimasida *peshkash qilib*

– *as a present*– sovg‘a sifatida deb berilsa, *tasadduq* – *aims money* – *niyat qilib pul bermoq* tarzida aks ettirilgan, *mulozamat qildilar* – *to pay homage* – *ta‘zim qilish uchun keldilar*; ya‘ni podshohga o‘lpon, yaxshi niyatda keltirilgan kambag‘allar uchun pul va nozik ibora *mulozamat qildilar to pay homage* – *ta‘zim qildilar* bilan aks ettirilgan. Ushbu uchlik J. Leyden–V.Erskin, S.Beverij, V. Tekston tarjimasida J. Leyden – V. Erskinning variantini asliyatga yaqin tarjima deyish mumkin. Agar biz asliyatdagi: Yakshanba kuni, jumodiulavval oyining o‘n beshida Xoja Muhammad Ali Xosttin keldi. Bir egarlik *ot peshkash qilib, tasadduqqa yormoq ham kelturdi*. Muhammad Sharif munajjim va Xost mirzolari ham Xoja Muhammad Ali bila kelib, *mulozamat qildilar*ni tarjima qilishga urinsak, u ingliz tilida bunday aks etishi mumkin:

On Sunday, the fifteenth of the month of Jumodiawwal, Khwaja Muhammad Ali came from Khost bringing a saddled horse as a present, and money given to charity. Muhammad Sharif, the astrologer, and the mirzas of the Khost with Khwaja Muhammad Ali also came and tendered me their service.

Millatga xos urf-odatlar tarjimaga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik xalqning dunyoqarashi, o‘y-fikri, kundalik turmush tarzi, ekin ekishidan tortib, ovqatlanish odobi va siyosiy-ijtimoiy hayotida ham o‘z aksini topadi. “Boburnoma” asarida qo‘llangan iboralarning barchasi milliy va madaniy xususiyatga ega. Ushbu jihatlarni tarixiy misollarda ko‘rish mumkin:

Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to‘shak ustida o‘lturur erdim. Hamza Sulton bila Mahdiy Sulton va Mamoq Sultonkim keldilar, bu salotinning ta‘zimig‘a qo‘pub to‘shakdin tushub, bu sultonlar bila ko‘rushtum. Sultonlarni o‘ng qo‘lda bog‘ishda o‘lturg‘uzdum. Muhammad Hisoriy boshliq barcha mo‘g‘ullar keldilar. Barcha mulozamatni ixtiyor qildilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 53].

Berilgan misolda ajratib keltirilgan *to‘shak, bog‘ishda o‘lturg‘uzdum, mulozamatni ixtiyor qildilar* ifoda birlilari milliy va madaniy mazmun-mohiyatga ega. Uning tabdildagi mazmunini kuzatamiz: U paytda temuriy sultonlar rasmi bilan to‘shak ustida o‘tirgandim. Hamza Sulton bilan Mahdiy Sulton va Mamoq Sulton kelganlarida, bu sultonlarning ta‘zimiga o‘rnimdan turib, to‘shakdan tushib, sultonlar bilan ko‘rishdim. Sultonlarni o‘ng qo‘l tomonimga o‘tirg‘izdim. Muhammad Hisoriy boshliq barcha mo‘g‘ullar keldilar. Barchasi mulozimlikni ixtiyor qildilar [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 49].

Asliyat matnida temuriy sultonlar davridagi to‘shakda o‘tirish udum bo‘lgani, *mulozamatni ixtiyor qilmoq* gapi sultonlarning ko‘pchiligi podshohga xizmat qilishi, ya‘ni mulozimlik qilish istagida bo‘lishini tabdilda aks etganini ko‘ramiz, lekin bog‘ishning ma‘nosini tabdil mualliflari ochib bermagan. Asliyat misolining rus tilidagi tarjimasi esa quyidagicha beriladi:

В это время по обычаю султанов-тимуридов я восседал на ложе. Когда пришли Хамза султан с Махди султаном и Мамак султанам, я поднялся из уважения к этим султанам и, сойдя с ложа, поздоровался с султанами. Султаны сели по правую руку от меня, скрестив ноги. Моголы, подначальные Мухаммад Хисари, тоже явились; все они пожелали мне служить [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 29] – Bu vaqtda temuriy sultonlar odatiga ko‘ra men taxtiravonda

o'tirgandim. Hamza Sulton, Mahdi Sulton va Mamaq sultonlar kelganlarida, men bu sultonlar bilan ko'rishish uchun ularning hurmatiga taxtiravondan pastga tushib, salom berdim. Sultonlar *oyoqlarinini chalishtirib* o'ng tomonimga o'tirishdi. Muhammad Hisorga itoat qiluvchi mo'g'ullar ham kelishdi. Ularning barchasi menga *xizmat qilish istagini bildirishdi*.

Asliyat mazmuni rus tilida biroz o'zgargan, to'shakda – на ложе, ya'ni *taxtiravonda* deb o'girilsa, *bog'ishda o'lturg'uzdum* tiz cho'kib emas *сели скрестив ноги*, ya'ni rus millatiga xos oyoqlarinini chalishtirib o'tirishdi tarzida berilgan. *Mulozamatni ixtiyor qildilar* – *пожелали мне служить* – *xizmat qilish istagini bildirishdi* deb to'g'ri tarjima qilingan. Shu bilan birga unda ot turkumiga kirgan bog'ishning tarjimasi tabdil kabi rus tilida ham aks etmagan. Rus tilida gapning qurilish strukturasini hisobga olsak, ba'zi tushunchalarning millatga xos nuqtai nazari, tushuncha yoki g'oyaning tarjima qilinishi tarjimashunoslik fanining o'ziga xos qoidalariga bo'ysunishni taqozo etadi, shunda aynan asliyat so'zi *to'shakning* rus tilida yo'qligi *ложка* tushunchasiga ko'chib o'tadi, ushbu farqli jihatlar *bog'ishda o'lturg'uzdum* – *сели скрестив ноги* – *oyoqlarinini chalishtirib o'tirishdi* orqali asliyat mazmunini qoplaganini ko'ramiz. Tarjimada to'shak taxtiravonga aylanib, sultonlarning o'tirish shakli cho'k tushib, tizzalab yoki tiz cho'kib emas, *oyoqlarini chalishtirib o'tirdilarda* aks etib, tarjimonning asliyatga aylanma yo'llar bilan yondashishlari mana shunday jarayonlarda o'z isbotini topgan.

Nima uchun rus xalqida to'shak emas, kursi ishlatilgan? Turkiy xalqlar nega to'shakda o'tiradi? Quruqlikda yashovchi xalqlarning to'shakda o'tirishi urf-odat, boshqa tomondan stuldan ko'ra to'shak qulay, uni taxlab tuya yoki otda olib yurish oson, turkiy xalqlarning aksariyati to'shakda o'tirib, ovqat tanovul qilishi ularning turmush tarzidagi odatiy holat. Bundan tashqari, sahro, cho'l-u biyobonlarda ham kursi emas, to'shak qulay anjomligini, tarixda odamlar chodirlarni tuya yoki otda o'zi bilan tashib yurishlarini osongina ko'z oldimizga keltiramiz. Xalqlarning etnografik yashash tarzi va joyga bog'liq ushbu jihatlar tarjimada o'ziga xos qiyinchiliklarni tug'dirgan. Qolaversa, asliyatda muallif *Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida o'lturur erdim*, deya urf bo'lgan jihatni yodga soladi. Asliyat misoli inglizcha tarjimalarda yanada o'ziga xos aks etgan bo'lib, J. Leyden–V.Erskinda quyidagicha o'giriladi:

On this occasion I received them sitting on a toshak, according to the custom of the sovereigns of the house of Taimur. Whem Khamzeh Sultan, with Mehedi Sultan and Mamak Sultan entered, I rose to do them honour, and descending from the toshak, embraced them, and placed them on my right hand on a baghish. A body of Moghuls, commanded by Muhammad Hissari, also came and entered into my service [Leyden J., 1826; 137] – *Shu munosabat bilan men ularni Temur xonadoni udumiga oid bo'lgan to'shakda o'tirgan holda qabul qildim. Hamza sulton, Mahdi sulton bilan birga ularga hurmat bajo keltirish uchun o'rnimdan turib, to'shakdan tushdim, ularni quchoqlab bag'rimga bosdim va o'ng tarafimga bog'ishga o'tirg'izdim. Muhammad Hissari tomonidan boshqariladigan mo'g'ullar ham kelib, mening xizmatimga kirishdi* (muallif tarjimasi).

J.Leyden–V.Erskin imkon qadar asliyat mazmunini aks ettirishga harakat qilib, *to‘shakdani* – *on a toshak* leksik kalka, *bog‘ishda o‘lturg‘uzdumni* – *placed on a baghish* shaklida – kalka usulida bersa, *mulozamatni ixtiyor qildilar* – *entered into my service* – xizmatimga kirdilar tarzida tarjima qilganlar, ularning tarjimasida ba’zi leksik birliklar o‘zgarsa ham asliyat matniga yaqinroq tarjima bo‘lgan deb o‘ylash mumkin. Asliyat matni S.Beverijda quyidagicha tarjima qilingan:

According to the custom of Timuriya sultans on such occasion, I had seated myself on a raised seat (tushak); when Hamza Sl. And Mamaq Sl. And Mahdi Sl. entered, I rose and went down to do them honour; we looked one another in the eyes and I placed them on my right, bagish da. A number of Mughuls also came, under Muhammad Hisari; all elected for my service [Beveridge A.S., 1921; 59] – Temuriy sultonlarning urf-odatiga ko‘ra, men o‘zim baland qilib solingan o‘rin (to‘shak)da o‘tirgan edim; Hamza sulton, Mamaq sulton va Mahdi sultonlar kirganida ularning hurmati uchun o‘rnimdan turib, (to‘shakdan) tushib ko‘rishdim va ularni o‘ng tomonga bog‘ishda o‘tqazdim. Muhammad Hisorning qo‘l ostidagi bir qancha mo‘g‘ullar ham keldilar. Ularning barchasi menga **xizmat qilish uchun ovoz berdilar**.

S.Beverijda asliyatning millatga xos iboralardan – to‘shak qavsda kursivda beriladi. Bog‘ish tarjima qilinmasdan kalka qilingan, lekin *mulozamatni ixtiyor qildilar* esa menga *xizmat qilish uchun ovoz berdilar* tarzida aks etadi. Shu joyda tarjimon matnosti havola keltirib o‘tadi. Uning havolasi quyidagicha aks etgan: *This pregnant phrase has been found difficult. It may express that Babur assigned the sultans places in their due precedence; that he seated them in a row; and that they sat cross-legged, as men of rank, and were not made, as inferiors, to kneel and sit back on their heels. Out of this last meaning, I infer comes the one given by dictionaries, “to sit at ease,” since the cross-legged posture is less irksome than the genuflection, not to speak of the ease of mind produced by honour received. Off. 18b and note on Ahmads posture; Redhouse s.nn. baghish and bagdash; and B.M. Tawarikh-i-guzida nasrat-nama, in the illustrations of which the chief personage, only, sits cross-legged.*

Ushbu ibora mazmunining topilishi juda mushkul bo‘ldi. Bobur sultonlarni ularning martabasiga qarab tegishli joylarni tayinlaganligini tasvirlagan bo‘lishi mumkin. Ular ketma-ketlikda oyoqlarini chalishtirib yoki tovonlari va oyoqlarining uchini ketiga tegizib, cho‘kkalab o‘tirdilar. So‘nggi so‘zdagi ma’nodan tashqari biz lug‘atlarda berilgan “o‘z o‘rnida buklanib, ixcham o‘tirish” degan xulosaga kelmoqdamiz, chunki oyoqlarni bir-biriga bukiib, tiz cho‘kib o‘tirish urf-odat deb qaralgan va uning mazmuni boshqalar uchun u qadar hurmatsizlikni bildirmaydi, chunki bu joyda qabul qilingan urf tufayli bamaylixtir o‘tirish degan tushunchadan yiroq. “Tovorixi guzida; Nusratnoma”ga ishlangan suratlarda uning bosh qahramoni oyoqlarini buklab o‘tirishi ko‘rsatilgan va 18-sahifadagi Ahmadning o‘tirish holati bu haqida yaxshi eslatma bo‘ladi: *Redxauz* s.nn va *bagdash* yoki *bog‘ishning* ma’nosi, degan havolani keltiradi.

S.Beverij birgina bog‘ishga berilgan ushbu havolasi bilan bizga asliyat muammosining yechimiga turtki bermoqda, chunki tabdilda va ruscha tarjimada ham aks etmagan bog‘ish S.Beverijning ilovasida to‘liq aks etib bo‘lgan. Endi asliyat misoli V.Tekstonda qanday o‘girilganiga e’tibor qaratamiz:

*At that time, in accordance with the practice of Timurid rulers, I used to sit on a raised cushion. When Hamza Sultan, Mahdi Sultan, and Mamaq Sultan arrived, I rose to honor the princes, descended from the cushion platform, and held an interview with them, for which I seated them in the place of respect, to my right. All the Moghuls led by Muhammad of Hissar came and elected **to pay homage** [Thackston W.M., 1996; 41] – O'sha paytdagi temuriy hukmdorlarning amaliyotiga muvofiq, men baland ko'tarilgan yostiqlarcha o'tirardim. Hamza sulton, Mahdi sulton va Mamoq sultonlar kelganlarida, shahzodalarning sharafi uchun o'rnimdan turib, yostiqlarcha platformadan ular bilan ko'rishish uchun pastga tushdim va suhbatlashib, ularning hurmatini joyiga qo'yib, o'ng tomonimga o'tqazdim. Muhammad Hissari boshqarib turgan barcha mo'g'ullar ham kelib, **menga iltifot ko'rsatishlarini bir ovozdan aytdilar.***

V.Tekston to'shak o'rnida yapon millati qo'llaydigan to'rtburchak yupqa yostiq shaklidagi *cushion* – to'shakni qo'llaydi, bog'ishni esa umuman tarjimada aks ettirmaydi, *mulozamatni ixtiyor qildilarni elected to pay homage* ya'ni *iltifot ko'rsatishlarini bir ovozdan aytdilar* tarzida o'giradi. V.Tekston, albatta, yuqoridagi tarjimalar bilan tanish bo'lgan, lekin forsiy variantda aks etmagan bog'ishni o'z tarjimasida aks ettirishni lozim topmagan, degan xulosaga kelamiz. Tarjimon temuriylar davrida udum bo'lgan an'anani nazarda tutib, asliyat mazmunni ochib berishi mumkin edi. Aslida, biz bog'ishning ifodalanishini quyidagicha talqin etamiz.

Bog'ish: 1. toponim joy nomi sifatida tepa joy, do'ng joy, so'z turkumidan ot; 2. hayvonning nomi – kiyik; 3. kiyik terisidan yasalgan gilamcha. Tarjimonlar esa bu so'zning ma'nosini yaxshi anglamaganlar. Bobur kiyik ovlashni sevgan, tabiat bilan hamohang hayot kechinmalari uning bir necha bor kiyik ovlaganini eslatib o'tadi. Ushbuning isboti uchun bir misol keltiramiz: *Bu navohi kiyigi asru qalin bo'lur, bir martaba ovladuk. Bir-ikki kundin so'ng tamom aymoqlar kelib mulozamat qildilar* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2002; 141] – Bu yerlarda kiyik juda ko'p bo'ladi. Bir marotaba ovladik. Bir-ikki kundan so'ng aymoqlarning hammasi kelib *mulozamat qildilar* [Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008; 143].

Asliyat misoli: *Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bila to'shak ustida o'tlurur erdim. Hamza sulton bila Mahdiy sulton va Mamoq sultonkim keldilar, bu salotinning ta'zimig'a qo'pub to'shakdin tushub, bu sultonlar bila ko'rushtum. Sultonlarni o'ng qo'lda bog'ishda o'lturg'uzdum. Muhammad Hissariy boshliq borcha mo'g'ullar keldilar. Borcha mulozamatni ixtiyor qildilarni biz quyidagicha tarjima qilamiz:*

At that time I was sitting on a toshak according to the custom of the Timurid sultans. When Hamza Sultan and Mahdi Sultan and Mamak Sultan came, I got off toshak (cushion which is made of cotton inside) for their respect, to bow to these sultans, and embraced them. I sat sultans on my right hand on deer skin carpet (bagish) (cushion which is made of cotton inside). All the Mughals, led by Muhammad Hissari, came and tendered me their service.

XULOSA

Demak, xulosa sifatida aytish mumkinki, mumtoz asar tarjimasi o'ta murakkab vazifa, milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalagan FBlarni to'la-to'kis o'girish har qachon

ham oson bo‘lmagan. Ayniqsa mumtoz asarlar tarjimasida. Tarjimonning darajasi asar muallifi darajasida bo‘lishi, u hayotning turli sohaları kesishish chorrahasida bo‘lishi naqadar mas’uliyatli vazifani tarjimon zimmasiga yuklaydi. Tarjimon uchun nafaqat mumtoz adabiyot tilini bilish, umumbashariy ehtiyojga molik jihatlarni, har qanday sohani qamrab oladigan atamalarni, tarixiy davr leksikasidan tortib hozirgi adabiy janrni ham puxta o‘rganishini talab etadi, tarixiy davr, narsa va hodisalar xronikasidan yaxshi xabardor bo‘lish kerakligini o‘rgatadi.

“Boburnoma” leksikasining o‘ziga xosligi Yevropa olimlarini hayratga solganki, asar tarjimasi jarayonida tarjimonlar o‘zlarining bir necha risola va monografiyalarining yaratilishiga olib kelgan. Bularga Eiji Manoning “Babur”, Stephan Dalening “Babur”, Annamariya Shimmelning “The Great Mughal Empire”, John Richardsning “The Mughal Empire”, Anna Floraning “King Errant” kabi asarlari ma’lum va mashhurdir.

Mumtoz asar “Boburnoma” tarjima tarixini boshidan kechigan nodir manbaa sifatida talqin etiladi. Shuningdek, yuqorida keltirgan J.Leyden va Villiam Erskin (1826), Susanna Beverij (1921) va V.Tekston (1996) tarjimalari orasida deyarli 100 yilga yaqin farq bo‘lsa-da, asar muallifi ilgari surgan g‘oyalar, falsafiy tushuncha, o‘y kechinmalarni har bir tarjimon saqlashga uringan. Undagi frazeologik iboralar inglizcha tarjimalarida aks etishi bilan birga ekvivalentlik dinamikasini yuzaga kelishini ta’minlab bergan. Bu esa bizning bo‘lajak tarjimonlarinimizda so‘z boyliklarini oshirishga xizmat qilishi bilan o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Annamaria, Sh. (2004). *The empire of the great mughals*. London.
2. Berdiyev, H., Rasulov, R. (1984). *O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Beveridge, A.S. (1921). *The Babur-nama in English: Emperor of Hindustan Babur*. London.
4. Bo‘taye, Sh., Irisqulov, A. (2009). *English Uzbek-Uzbek English dictionary*. Tashkent: Fan.
5. Dadaboyev, H. (2008). *Tarixiy terminlar lug‘ati*. Toshkent.
6. de Courteille, P.A. (1972). *Dictionnaire Turk-Oriental*. Amsterdam: Philodress.
7. Eiji, M. (1995). *Zahir al-din Muhammad Babur: Bābur-nāma (Vaḳāyi): Critical edition based on four Changhatay texts with introduction and notes*. Kyoto: Syokado.
8. Eiji, M. (2013). *Babur*. Japan: Yamakava Shuppansha.
9. Eugene, A.N. (1964). *Toward a science of translating*. Brill Publishers.
10. Kunin, A.V. (1984). *Anglo-russkij frazeologicheskij slovar’*. Moskva: Russkij yazyk.
11. Leyden, J. (1826). *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan*. London.
12. Nazarov, Q. (2004). *Falsafa qomusiy lug‘at*. Toshkent: “Sharq” NMAK.
13. Olimov, M. (2004). *“Boburnoma”da qo‘llangan sinonimlar lug‘ati*. Toshkent: Fan.
14. Rahmatullayev, Sh. (1992). *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. Toshkent.
15. Rahmatullayev, Sh. (2003). *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (2-jild): arab so‘zlari va ular bilan hosilalar*. Toshkent: Universitet.
16. Rahmatullayev, Sh. (2010). *Hozirgi adabiy o‘zbek tili*. Toshkent: Mumtoz so‘z.
17. Shamsiyev, P. (1972). *Navoiy asarlari lug‘ati*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.
18. Shamsiyev, P., Mirzayev, S. (Tarj.). (1960). *Boburnoma* (Zahiriddin Muhammad Bobir). Toshkent: O‘zSSR Fan nashriyoti.

19. Thackston, W.M. (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. New York.
20. Xolmanova, Z. (2021). *"Boburnoma" til qomusi*. Toshkent: Akademnashr.
21. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. (2014). Toshkent: Sharq.
22. Zahiriddin, Muhammad Babur. (2008). *Babur-name*. Tashkent: East Publishers.
23. Zahiriddin, Muhammad Bobur. (2002). *Boburnoma*. Toshkent: Sharq.
24. Zahiriddin, Muhammad Bobur. (2008). *Boburnoma*. Toshkent: O'qituvchi.

REFERENCES

1. Annamaria, Sh. (2004). *The empire of the great mughals*. London.
2. Berdiyev, H., Rasulov, R. (1984). *Uzbek paremiological dictionary*. Tashkent: Teacher Publishers.
3. Beveridge, A.S. (1921). *The Babur-nama in English: Emperor of Hindustan Babur*. London.
4. Butayev, Sh., Iriskulov, A. (2009). *English Uzbek-Uzbek English dictionary*. Tashkent: Science.
5. Dadaboyev, H. (2008). *Dictionary of historical terms*. Tashkent.
6. de Courteille, P.A. (1972). *Turk-Oriental dictionary*. Amsterdam: Philodress.
7. Eiji, M. (1995). *Zahir al-din Muhammad Babur: Bābur-nāma (Vaḳāyi): Critical edition based on four Changhatay texts with introduction and notes*. Kyoto: Syokado.
8. Eiji, M. (2013). *Babur*. Japan: Yamakava Shuppansha.
9. Eugene, A.N. (1964). *Toward a science of translating*. Brill Publishers.
10. Kholmanova, Z. (2021). *"Baburname" language encyclopedia*. Tashkent: Akademnashr.
11. Kulin, A.V. (1984). *English-Russian phraseological dictionary*. Moscow: Russian language.
12. Leyden, J. (1826). *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan*. London.
13. Nazarov, K. (2004). *An encyclopedic dictionary of philosophy*. Tashkent: East Publishers.
14. Olimov, M. (2004). *Dictionary of synonyms used in "Baburname"*. Tashkent: Science.
15. Rahmatullayev, Sh. (1992). *Phraseological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent.
16. Rahmatullayev, Sh. (2003). *Etymological dictionary of the Uzbek language (Vol. 2): Arabic words and their derivatives*. Tashkent: University.
17. Rahmatullayev, Sh. (2010). *Modern literary Uzbek*. Tashkent: A Classic Word.
18. Shamsiyev, P. (1972). *Dictionary of Navoi's works*. Tashkent: Gafur Gulam Publishing House of Literature and Art.
19. Shamsiyev, P., Mirzayev, S. (Trans.). (1960). *Baburname (Zahiriddin Muhammad Bobir)*. Tashkent: Science Publishing House of the USSR.
20. Thackston, W.M. (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. New York.
21. Zahiriddin Muhammad Babur's encyclopedia. (2014). Tashkent: Sharq.
22. Zahiriddin, Muhammad Babur. (2002). *Baburname*. Tashkent: East Publishers.
23. Zahiriddin, Muhammad Babur. (2008). *Babur-name*. Tashkent: East Publishers.
24. Zahiriddin, Muhammad Babur. (2008). *Baburname*. Tashkent: Teacher Publishers.